

SO‘Z BIRIKMALARINING TAHLILI ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

K.A.Abrorxonova

PhD, dotsent

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang ‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasini mudiri

M.K.Murodova

Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7443772>

Annotatsiya. Ushbu maqolada gapda so‘zlarning o‘zaro bo‘g‘lanishi: teng bog‘lanish, tobe bog‘lanish, gap va uning so‘z birikmasidan farqlari, so‘z birikmasining hosil bo‘lish usullari, gap tarkibidagi so‘z birikmalarini ajratishga oid misollar berilgan. Ushbu maqoladan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, ushbu sohada ilmiy izlanuvchilar foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: sintaksis, teng bog‘lanish, tobe bog‘lanish, gap, so‘z birikmasi, grammatik bog‘lanish, moslashuvli bog‘lanish, tobe bo‘lak, hokim bo‘lak, bog‘lovchi vositalar, kelishik qo‘shimchasi, egalik qo‘shimchasi, ko‘makchilar.

ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА СЛОВСОЧЕТАНИЙ

Аннотация. В данной статье связь слов : равнозначная связь, подчинительная связь, предложение и его отличия от словосочетания, способы образования словосочетания, примеры выделения словосочетаний в предложении. Данная статья может быть использована учителями начальных классов и исследователями в данной области.

Ключевые слова: равноправный союз, подчинительный союз, синтаксис, предложение, словосочетание, грамматический союз, переходный союз, придаточное предложение, управляющее предложение, союзы, суффикс согласования, суффикс притяжательного склонения, вспомогательные слова.

FORMATION OF LINGUISTIC COMPETENCIES BASED ON THE ANALYSIS OF WORD COMBINATIONS

Abstract. In this article examples of the connection of words in a sentence: equal connection, subordinate connection, differences between a sentence and a phrase, methods of formation of a phrase, and the separation of phrases in a sentence are given. This article can be used by primary school teachers and researchers in this field.

Keywords: equal connection, subordinate connection, syntax, sentence, phrase, grammatical connection, adaptive connection, subordinate clause, governing clause. conjunctions, agreement suffix, possessive suffix, auxiliaries.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada turli qarorlar, prezident farmonlari ham mavjud bo‘lib, ular orqali yoshlarga ko‘plab imkoniyatlar berish nazarda tutilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASINING 4-bobi “Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar” deb nomlangan hamda ushbu bobda quyidagi bo‘limlar mavjud: Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

-oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasining 50 foizdan yuqori bo'lishi ta'minlanadi, sohada raqobat muhiti yaratiladi;

-xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlari joriy etiladi, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tiladi;

-oliy ta'lim mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi;

-oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligi ta'minlanadi;

-oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalari jalb etiladi;

-talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus asosida rivojlantiriladi;

-ta'limning ishlab chiqarish korxonalarini va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligi yo'lga qo'yiladi(4-bobdan).

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilariga ona tili fanidan qo'yiladigan talablar

(4-sinf)
Lingvistik kompetensiya
Sintaksis:
gaplardagi ega, kesimni farqlaydi;
matn bo'yicha savol tuzadi, berilgan savollarga javob yozadi;
<i>mashq matnidagi so'z birikmalarini to'g'ri yozadi;</i>
gapning maqsadiga ko'ra turlarini to'g'ri farqlaydi;
gaplarda va matnlarda tinish belgilari(nuqta, vergul, so'roq)ni to'g'ri qo'llaydi.

Biz foydalanayotgan til turli birliklardan, vositalardan iborat. Ularning har biri tilda o'zining muhim vazifasini bajaradi. Tahlil qilinganda til birliklari ajratiladi, aniqlanadi va izohlanadi. Til birligi bir-biridan vazifasi, ifoda materiali, tuzilishi va tizimdagi o'rni bilan farqlanadigan til hodisasidir: gap, so'z birikmasi, so'z, tovush, qo'shimcha.

Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi fikrni shakllantirish, uni ifodalash, odamlar orasida fikr almashuv vositasi bo'lib xizmat qilishdan iborat. Tilning fikrni shakllantirish vazifasi so'zlar, qo'shimchalar va ularda mujassamlashgan ma'nolar yordamida amalga oshsa, fikrni ifodalash, uni birovga yetkazish vazifasi gap orqali namoyon bo'ladi.

So'zlarning tildagi muayyan qonun-qoidalar asosida o'zaro birikuvidan so'z birikmasi va gaplar hosil bo'ladi. So'z birikmalari va gaplar o'z qurilishi hamda ifoda mazmuniga ko'ra farqlanadi. So'z birikmalari va gaplarning qurilishi hamda ifoda xususiyatlarini o'rganuvchi til bo'limi sintaksis deyiladi. Sintaksis yunoncha "syntaxis" so'zidan olingan bo'lib, yopishtirish, bog'lash demakdir. Sintaksis so'zlarning bir-biriga bog'lanishi hamda gap tuzilishi qonun-qoidalarini o'rgangani uchun unda: 1) so'z birikmasi sintaksisi; 2) gap sintaksisi kabi bo'limlar mavjud.

Gap og'zaki nutqda ma'lum bir ohang bilan aytiladi. Bu ohang yozuvda tinish belgilari bilan ifoda etiladi. Tinish belgilari qo'llanishi haqidagi qoidalar yig'indisi punktuatsiya deyiladi.

Har qanday til o'zining nutq tovushlari, so'zlari(iboralari) va qo'shimchalaridagi imkoniyatlarini sintaksisda, ya'ni gap qurilishida namoyon qiladi. Sintaksis tilimiz imkoniyatlarining ko'zgidir.

Gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash. Gapda so'zlar o'zaro teng va tobe bog'lanadi. Teng va tobe bog'lanish grammatik bog'lanish hisoblanadi. Tobe bog'lanish deganda so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi va gapda ega va kesimning bog'lanishi tushuniladi. Gapda so'roqqa javob bo'luvchi har bir mustaqil so'z grammatik bog'lanishda ishtirok etadi. Biz Navoiy, Fuzuliy, Mashrab g'azallarini o'qidik gapidagi grammatik bog'lanishlar sonini aniqlaymiz. Ushbu gapda Navoiy, Fuzuliy, Mashrab so'zlari bitta teng bog'lanishni hosil qiladi. Gapdagi tobe bog'lanishlarni aniqlaymiz: 1) biz o'qidik – ega va kesimning tobe bog'lanishi; 2) g'azallarini o'qidik – so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi; 3) Navoiy g'azallarini – so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi; 4) Fuzuliy g'azallarini – so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi; 5) Mashrab g'azallari – so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishidir. Demak, gapda tobe bog'lanishlar soni 5 ta, 1 ta teng bog'lanish bilan birgalikda 6 ta grammatik bog'lanish bor. Gapda 6 ta tobe bog'lanish bo'lib, 5 tasi so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishidir. Gapda 5 ta so'z birikmasi bor.

Sohibqiron ayol qadriga, go'zalligiga ichki muhabbat bilan qaragan gapidagi grammatik bog'lanishlar sonini aniqlaymiz. Gapdagi qadriga, go'zalligiga so'zlari bitta teng bog'lanishni hosil qiladi. Tobe bog'lanishlar sonini aniqlaymiz: 1) sohibqiron qaragan – ega va kesimning tobe bog'lanishi; 2) muhabbat bilan qaragan – so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi; 3) ichki muhabbat – so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi; 4) go'zalligiga qaragan – so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi; 5) qadriga qaragan – so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi; 6) ayol qadriga – so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi; 7) ayol g o'zalligiga – so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi. Demak, ushbu gapda 1 ta teng bog'lanish va 7 ta tobe bog'lanish, jami 8 ta grammatik bog'lanish bor. 7 ta tobe bog'lanishdan 6 tasi so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishidir. Gapda 6 ta so'z birikmasi bor. *Eslatma.* Moslashuvli bog'lanish deganda so'z birikmasida so'zlarning moslashuv usulida bog'lanishi hamda ega va kesimning shaxs-sondagi moslashishi ham nazarda tutiladi. Sohibqiron ayol qadriga, go'zalligiga ichki muhabbat bilan qaragan gapida moslashuvli bog'lanishlar soni 3 ta: 1) sohibqiron qaragan – ega va kesimning shaxs va sondagi moslashuvi; 2) ayol qadriga – so'z birikmasida so'zlarning moslashuv usulida bog'lanishi; 3) ayol g o'zalligiga – so'z birikmasida so'zlarning moslashuv usulida bog'lanishi. Moslashuvli so'z birikmalari soni esa 2 ta: 1) ayol qadri; 2) ayol go'zalligi.

Tobe bo'lakning hokim bo'lakka bog'lanish yo'llari. Bog'lar, qushlar, sayra so'zlarini alohida talaffuz etsangiz, shu so'zlar ifodalagan alohida narsa va harakatlar haqidagina ma'lumot bergan bo'lasiz. Siz esa "bog'larda qushlar sayrashi" haqidagi fikrni ifodalamoqchisiz. Buning uchun so'zlarni bir-biriga bog'laysiz. Birinchi so'zga o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini qo'shasiz, chunki "sayrash" harakati qayerda sodir etilganini bayon qilmoqchisiz. Sayramoq so'ziga harakatning bajarilish vaqtiga qarab zamon bildiruvchi qo'shimchalardan birini qo'llaysiz. Natijada sayramoqda yoki sayradi shakli hosil bo'ladi. Sayra so'ziga qo'shilgan -moqda va -di shakllari zamon ma'nosini bildirishi bilan birga III shaxs, tasdiq ma'nolarini ham ifodalaydi. Sayramoqda va sayradi so'zi nima? so'rog'iga javob bo'luvchi va bosh kelishikda kelishi lozim bo'lgan hamda sayrash xususiyatiga ega bo'lgan narsalarni bildiruvchi so'zni hamda qayerda? so'rog'iga javob bo'lib o'rinni bildiruvchi so'zni talab qiladi. Natijada Bog'larda qushlar sayramoqda gapi hosil bo'ladi. Bu gapda uchta gap bo'lagi ikkita bog'lanishni

hosil qilyapti: 1) bog'larda sayramoqda; 2) qushlar sayramoqda. Birinchi bog'lanishda bog'larda so'zi qayerda sayramoqda? so'rog'iga; ikkinchi bog'lanishda esa qushlar so'zi nimalar sayramoqda? so'rog'iga javob bo'ladi. So'roqqa javob bo'layotgan so'z so'roq talab qilayotgan (so'roq bog'lanib kelayotgan) so'zga kelishik, shaxs-son, zamon qo'shimchalari va ko'makchilar yordamida bog'lanadi.

Tobe bog'lanishda o'zaro bog'langan bo'laklar so'roq berish orqali aniqlanadi. Qaysi bo'lakdan so'roq berilsa, shu bo'lakka tobe hisoblanadi. Masalan, Bahorda chiroyli gullar ochildi gapidagi tobe bog'lanishlarni so'roq berib aniqlaymiz. Nimalar ochildi – gullar ochildi. Demak, gullar so'zi ochildi so'ziga tobe bog'langan. Qachon ochildi – bahorda ochildi. Demak, bahorda so'zi ochildi so'ziga tobe bog'langan. Qanday gullar- chiroyli gullar. Demak, chiroyli so'zi gullar so'ziga bog'langan. Gapda quyidagi tobe bog'lanishlar mavjud: 1) gullar ochildi; 2) bahorda ochildi; 3) chiroyli gullar.

Tobe bog'lanish doimo ikki qismdan iborat bo'ladi: tobe bo'lak va hokim bo'lak. So'roq bog'lanib kelgan qism hokim, so'roqqa javob bo'lib keluvchi qism tobe bo'lak sanaladi. Masalan, chiroyli (qanday?) ko'ylak, go'zal (qanday?) mamlakat, dalaga (qayerga?) bormoq.

Tobe bo'lak hokim bo'lak bilan kelishik, egalik, shaxs-son qo'shimchalari, ko'makchilar va ohang yordamida bog'lanadi. Bunday bog'lanish ikki xil sintaktik birlikni hosil qiladi: 1) gap; 2) so'z birikmasi.

Ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda ona tilini o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o'quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi.

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'rnini, o'z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili o'qituvchisi o'z ixtisosligini puxta bilishi, ilg'or pedagogik texnologiya hamda zamonaviy o'quv-texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim samarasi ham, o'qitish darajasi ham yuqori bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI.
2. Ona tili o'qitish metodikasi, Toshkent "NOSIR" nashriyoti 2009-yil.
3. Boymurodova G., Sattorova X. va boshqalar. O'qish. 2-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma – Toshkent: "Sharq", 2014.
4. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: "O'qituvchi", 2014.
5. Masharipova U., Umarova M., Baynazarova D., Nabiyeva M. Ona tili, sinf.
6. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma Toshkent: "Sharq", 2014.
7. Orif Tolib "Bolalarga adabiyotining fidoyisi" (To'plam) 2004-yil.
8. Yo'ldoshev Y. "Bolalarga bola bo'lib yozmoq bor" " O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2009 -yil. 16-noyabr.

9. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2004.
10. Shodiyeva Sh. “Boshlang'ich sinflarda so‘z birikmasi va gap ustida ishlash metodikasi” BMI Samarqand-2016.
11. Abdullayev F. So‘zlar o‘zaro qanday bog‘lanadi. - T. : Fan, 1978. -75 b.
12. Abdurahmonov F. , Sulaymonov A. , Xoliyorov X. , Omonturdiyev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. - T. : O‘qituvchi, 1979. - 208 b.
13. Borovkov A. K. , G‘ulomov A. , Ma‘murov Z. , Shermuhammedov T. O‘zbek tili grammatikasi. II qism. Sintaksis. - T. : O‘zdavnashr, 1956. - 132 b.
14. Ishmatov Q. Umumta’lim fanlarda o‘qitish metodi. O‘quv qo‘llanma. Namangan, 2006
15. Umumtalim maktablari uchun 8-sinf ona tili darsligi, T. : Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
16. Educational issues in the works of enlightened intellectuals F Rahmatova, K Abrorxonova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar 1 (Архив№ 2)
17. VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL K Abrorkhonova, S Khudoyberdieva European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Organization of excursions in primary school classes
18. K Abrorkhonova, S Khudoyberdiyeva International Scientific and Current Research Conferences, 139-14 BOSHLANG 'ICH SINF "TARBIYA" DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI KA Abrorxonova, SMS Qizi Science and innovation 1 (1), 54-61
19. FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM THROUGH TOURISM IN THE CURRENT TEXTBOOK" UPBRINGING" OF PRIMARY EDUCATION AK Abrorkhonovna British Journal of Global Ecology and Sustainable Development 5, 70-74
20. TECHNOLOGY OF FORMING THE VIRTUE OF TOLERANCE IN PRIMARY CLASS STUDENTS K Abrorxonova, F Rahmatova, M Dehqonboyev Science and Innovation 1 (7), 362-367
21. BOSHLANG'ICH SINFDA TA'LIM SAMARADORLIGINI AMALGA OSHIRISH METODIKASINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH K Abrorxonova, M Karabayeva Science and innovation 1 (B7), 1282-1289
22. BOSHLANGICH SINF OQUVCHILARIDA TOLERANTLIK FAZILATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI K Abrorxonova, F Rahmatova, M Dehqonboyev Science and innovation 1 (B7), 362-367
23. Hayitov, A. I., & Miltikboyeva, Z. (2022, May). METHODS OF ORGANIZATION OF NATIVE LANGUAGE CLASSES IN PRIMARY CLASSES ON THE BASIS OF INTERACTIVE METHODS. In *E Conference Zone* (pp. 11-13).
24. Hayitov, A. I., & Abdushukurova, D. (2022). EFFECTIVE WAYS TO ORGANIZE MOTHER TONGUE LESSONS IN PRIMARY CLASSES ON THE BASIS OF INTERACTIVE TECHNIQUES. *Conferencea*, 30-32.
25. Bakhtiyarovna, M. Z. (2021). INTEGRATED TEACHING OF PRIMARY EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1332-1336.
26. Anvar, H. Integrated Approach to Improving Pedagogical Abilities of Future Primary Education Teachers. *JournalNX*, 197-201.

27. Салаева М.С., Абдурасулова Ш.К. Педагог профессионализмининг шаклланиши касбий кадрят сифатида намоён бўлиши // EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE Innovative Academy Research Support Center. www.in-academy.uz. ISSN 2181-2888. With Impact Factor: 8.2. Volume 2 Issue 02, February 2022 Pages 183 -188. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6242575>
28. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>
29. Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>
30. Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o'rni // Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск №22 (том 5) (январь, 2022). - С.1099-1103. https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/a62191_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf
31. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // ИЖТИМОИЙ ФАНЛАРДА ИННОВАСИЯ ONLAYN ILMIY JURNALI, ISSN - 2181-2608. With Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59–62. Retrieved from <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>
32. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 www.in-academy.uz Volume 2 Issue 4, April 2022 ISSN 2181-2888. Pages 136-139. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330>
33. Salaeva M.S., Koshnazarova M.A., Abdukodirov G., Radjabova D.A. Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // SPECIALUSIS UGDYMAS / SPECIAL EDUCATION 2022 1(43). Pp. 10571 – 10576. <https://www.sumc.lt/index.php/se/article/view/1637>
34. Muxammadeva, X. K., Nurmuratova, I., Tulaganova, S., & Jumaniyazova, M. (2022). O 'QUVCHILARDAGI KITOVXONLIK MADANIYATI ORQALI ALTRUISTIK MOTIVLARNI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288.
35. Мухаммадиева, Х. К., & Исматуллаева, Ф. Р. (2022). БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ДИДАКТИК ЖАРАЁНДА БОЛАНИНГ РИВОЖЛАНИШИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК ТАҲЛИЛИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(2), 77-82.
36. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 10-14.

37. Эргашева, Г. М., Мухаммадиева, Х. К., & Артикбаева, Н. Н. (2021). Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. *Science and Education*, 2(5), 578-582.
38. Muhammadieva, K. (2020, June). The Idea “Personal Interests and the Priority of Education” in the Education as One of the Key Factors in Reforming School Education for Upbringing Perfect Individual. In *Proceedings of International Multidisciplinary Scientific-Remote Online Conference on Innovative Solutions and Advanced Experiments* (p. 22).
39. Абдуллаева, Ш. А., & Мухаммадиева, Х. К. (2016). Девиант хулкли илк ўспирин ёшидагиларни ижтимоийлаштириш ва профилактика ишларини олиб бориш. *Современное образование (Узбекистан)*, (11), 48-53.
40. Мухаммадиева, Х. К. (2014). Начальные сведения о развитии арифметики в трудах учёных математиков Востока. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (3-2), 230-231.
41. Tuxtayevna, H. M., Mahkambayevna, E. G. Z., & Karamatovna, M. X. Methodological Bases of Development of Socially Active Competencies of Future Primary School Teachers in Students and Improvement of Its Methodology. *International Journal of Health Sciences*, (II), 10646-10654.
42. Furkatovna, A. M. (2022). INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(7), 99-106.
43. Furkatovna, A. M. (2022). Methods of Innovation Approach to Forming Communicative Competence of Future Educators. *Eurasian Scientific Herald*, 10, 53-58.
44. Adilova, M. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS OF INNOVATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHER. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 304-308.
45. Адилова, М. Ф. (2021). Формирование экологической культуры у учеников начального образования на основе медиатехнологий. *Science and Education*, 2(6), 543-546.
46. Адилова, М. Ф. (2020). РЕФОРМЫ В ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКИСТАНА: СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ. *Science and Education*, 1(7), 452-455.
47. Ergasheva, G. M., Sotiboldieva, S. J., & Adilova, M. F. (2020). COMPREHENSIVE APPROACH TO ASSESSING STUDENTS KNOWLEDGE IN PRIMARY SCHOOL BASED ON THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Theoretical & Applied Science*, (1), 56-62.